

G'O'ZADA VILT KASALLIGI BELGILARINING NAMOYON BO'LISHI VA UNGA QARSHI KURASH CHORALARI

Choriyeva Fazilat

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti.

fazilatchoriyeva151@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14175590>

Annotatsiya. G'o'zaning vilt ya'ni so'lish kasalligi juda xavfli va zararli kasallik hisoblanadi. Bu kasallikning belgilari asosan avgust oyida namoyon bo'la boshlaydi. G'o'za barglari oldin sarg'ayib, keyin esa qurib qoladi. Bu kasallik hosilga sezilarli darajada zarar yetkazadi. Paxta tolasi mo'rt bo'lib qoladi, chigit moydorligi, unuvchanligi keskin pasayadi. Vilt kasalligini tuproqda yashovchi *Verticillum dahlia* zamburug'i qo'zg'atadi. Bu kasallikni bartaraf qilish uchun zararlangan o'simlik daladan tozalanib, yo'q qilinadi. Ya'ni yoqib yuborish, ko'mib tashlash kabilar. Tuproq holati mahalliy hamda sidrat o'g'itlar bilan unumdorligi oshiriladi.

Kalit so'zlar: g'o'za, vilt, vertisillyoz, fuzarioz, saprofit, zambrug', mitseliy, fungitsid, preparat.

MANIFESTATION OF SYMPTOMS OF WILT DISEASE IN COTTON AND MEASURES TO COMBAT IT

Abstract. Cotton wilt is a very dangerous and harmful disease. Symptoms of this disease begin to appear mainly in August. Cotton leaves first turn yellow and then dry up. This disease significantly damages the crop. The cotton fiber becomes brittle, the moisture content and germination of the seed decreases sharply. Wilt disease is caused by the *Verticillum dahlia* fungus that lives in the soil. To eliminate this disease, the affected plant is removed from the field and destroyed. That is, burning, burying. Fertility is increased with local and sidrate fertilizers.

Key words: cotton, wilt, verticilosis, fusarium, saprophytic, fungus, mycelium, fungicide, drug.

ПРОЯВЛЕНИЕ СИМПТОМОВ ВИЛТА У ХЛОПКА И МЕРЫ БОРЬБЫ С НИМ.

Аннотация. Хлопковое вилт – очень опасное и вредоносное заболевание. Симптомы этого заболевания начинают проявляться преимущественно в августе. Листья хлопка сначала желтеют, а затем засыхают. Это заболевание существенно повреждает урожай. Волокно хлопка становится ломким, резко снижается влажность и всхожесть семян. Болезнь увядания вызывает гриб *Verticillum dahlia*, обитающий в почве. Для устранения этого заболевания пораженное растение удаляют с поля и уничтожают. То есть сжечь, закопать. Плодородность повышают местными и сидратными удобрениями.

Ключевые слова: хлопчатник, вилт, вертициллез, фузариоз, сапрофит, гриб, мицелий, фунгицид, препарат.

G'o'za o'simligi betartib o'sish xususiyatiga ega bo'lib, to'xtovsiz bargalar, poyalar, gullar, meva (ko'sak) va urg'lar hosil qilishi bilan ta'riflanadi. Paxtachilikning tarixida ko'pchilik nomdor g'o'za navlari turlararo duragaylash natijasida yaratilgan. G'o'za deganda umuman, *Gossypium avlodining* (Malvaceae oilasi) to'rtta *G.hirsutum* L., *G.barbadense* L., *Gherbaccum* L. and *G.arboreum* L. turlari tushiniladi-yigirish uchun tolasi kerakli ashyo bo'lganligi uchun madaniylashtirilgan.

Vilt - so'lish kasalligidir. Vilt kasalligini tuproqda yashovchi *Verticillium dahlia* zamburug'i qo'zg'atadi, kasallik g'o'zadan tashqari 400 ga yaqin o'simliklarni zararlaydi. Vilt kasalligining 2 turi mavjud; vertisillyoz vilt va fuzarioz vilt.

Fuzarioz vilt kasalligi qo'zg'atuvchisi - *Fusarium oxysporum* Sch.f. *vasinfectitum* Snyder et Hansen zamburug'i. Kasallik belgilari nihollar paydo bo'lgandan o'sish davrining oxirigacha uchraydi. Yosh nihollarning urug' bargida tomirlarning sarg'ayishi kuzatiladi. Barglarning ma'lum bir qismi yoki bargning butun qismi sarg'aygan tomirlar yordamida mayda yashil qismlarga bo'linib, yorug'likka tutib ko'rilsa to'rsimon ko'rinish hosil qilgani asosiy belgisi hisoblanadi. Kasallik ta'sirida g'o'zaning ko'chat soni siyraklashib, tuplari qurib qoladi, paxta hosili 60-80% kamayishi mumkin.

Vertisillyoz vilt g'o'zaning eng keng tarqalgan kasalliklaridan biri bo'lib, paxta hosili va tola sifatini pasaytiradi. Asosan o'rta tolali g'o'zani zararlaydi. Kasallangan o'simliklarda tola mo'rt bo'ladi, moydorligi, chigit unuvchanligi keskin pasayadi.

Vilt kasalligi zamburug'i rangsiz mitseliylardan iborat, undan konidiyalar hosil qiluvchilar, oidiyalar, xlamidosporalar va mikrosklerotsiyalar paydo bo'ladi. U konidiya (sporalar) yordamida ko'payadi. Qulay sharoit (19-20 C daraja issiq va 60-70% namlik) bo'lganda mikrosklerotsiy va mitseliylarning ommaviy tusda o'sishi uchun qulay sharoit tug'iladi, zamburug'dan konidiylar hosil bo'ladi. Zamburug' ekin qoldiqlari, tuproqdagi urug'lik chigit sirtiga yopishib, suv, ish qurollari bilan tarqalishi ham mumkin. Zamburug' mitseliysi o'simlikka o'tgach, uning tomirlarida rivojlanib o'simlikning o'suv nuqtasiga qadar boradi, barglar va meva bandiga o'tadi. Noqulay sharoitda zamburug' o'simlikda mikroskleroysiylar hosil qiladi va zararlangan o'simlik qismlari orqali boshqa o'simliklarga tarqalib ketadi. Vilt kasalligining tarqalish manbai zaralangan tuproq va o'simlik hisoblanadi.

Viltning dastlabki belgisi g'o'zaning pastki yarusidagi barglarda sariq tusdagi dog'lar hosil bo'lishidir. Bu dog'lar keyinchalik qo'ng'ir tusga kiradi va quriydi. Zararlangan o'simlik o'sishdan to'xtaydi, barglari to'kiladi va butunlay qurib qoladi. G'o'zada uzoq muddat davomida kasallik xuruj qilsa, ko'saklar pishmay barvaqt majburiy ochiladi. Ko'pincha avgust oyini oxirlarida kasallikning yashin tezligidagi shakli tarqaladi, bunda 2-3 kun ichida o'simlik butunlay qurib qurib qoladi. Kasallikni bilish maqsadida, g'o'zaning asosiy poyasi kesib ko'rilganda, uning o'zagi nekrozlangan (qo'ng'irlashgan), barg bandi to'qimalari esa qo'ng'ir tusga kirgan bo'ladi.



Viltga qarshi asosiy kurash usullariga chidamli navlarni ya'ni: "Surxon 14", "Namangan 77", "Buxoro12", "Buxoro 102" kabi navlarni ekish, g'ozani beda va boshqa ekinlar bilan qisqa rotatsiyali almashlab ekish tizimlarini qo'llash, tuproq hosildorligini oshirish va g'ozaning vilt kasalliklariga chidamliligini oshirish maqsadida yoz oxiri-kuz davrida siderat ekinlarini ekib, bahorda dalani tayyorlash paytida uni haydab, sideratlarni tuproqqa kiritish, ekishdan oldin dalani puxta tayyorlash, tekislash, ishlov berish, ekish uchun sara urug'lik chigit ishlatish va uni ekishdan oldin samarali urug' dorisining mikroelementar aralashmasi bilan va stimulyatorlar (unum, fitovak, gumimaks, uzgumi) bilan dorilash, dori yuvilib ketmasligi uchun chigitni suvga bo'ktirib qo'ymaslik, chigitni tavsiya qilingan qulay muddatlarda va sarf- me'yordalarda ekish, o'suv davrida dalani begona o'tlardan toza tutish, mineral va organik o'g'it(go'ng-tuproq aralashmasi, fekal) solish ekinlarni o'z vaqtida sug'orish, bostirib, ko'llatib sug'ormaslik, suvni zaralangan daladan sog'lomlariga o'tkazmaslik, kuzda dalani g'ozapoyadan tozalash, kech kuz-qish paytida dalani sug'orib yaxob(suv) berish kiradi. Viltga qarshi maxsus fungitsidalar qo'llanilmaydi, balki ildiz chirishga qarshi ishlatiladigan preparatlar viltga qarshi ham samara beradi.

Xulosa

Men ushbu maqolani yozib, mana shu xulosani aytishim mumkinki: g'ozaning vilt ya'ni so'lish kasalligi juda xavfli kasallik bo'lib, kasallik belgilari juda kech namoyon bo'lganligi sababli kasallangan g'ozaga qarshi kurash chorasi yaxshi samara bermaydi. Bu bilan kasallangan g'ozalarni daladan to'liq yig'ishtirib olib bartaraf qilinib, tuproqda qolmasligining oldi olinadi.

Chigit ekishdan oldin dorilash, belgilangan muddatlarda ekish, suv sarfini me'yordan oshirmaslik kabi choralar orqali ushbu kasallik bilan zararlanish oldi olinadi.

REFERENCES

1. S.T. Jo'rayev: G'oz' za seleksiyasi va urug'chiligi .T.,2022 (250-bet)
2. B. Sulaymonov, B. Boltayev , R. Tillayev , Sh .Abdualimov Kuzgi bug'doy va g'oz' za yetishtirish asoslari .T., 2017 (104-105 bet)
3. B.A. Sulaymonov, B.S. Boltayev , Sh.X. Abdualimov Paxtachilikda stimulyatorlarni qo'llash va g'oz' zani zarali organizmlardan himoya qilishning majmuiy usullari.T.,2015 (63-64 bet)
4. Pirmqulova, M., & Mamarajabov, S. (2022). BIOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF POTATOES. Science and innovation, 1(D6), 88-91.
5. Jumageldiyevna, G. N., & Faxriddinovich, M. S. (2023). KIVI O'SIMLIGI HAQIDA. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 1(6), 12-17.
6. Jumageldiyevna, G. N., & Faxriddinovich, M. S. (2023). ZARANG (ACER) TURKUMI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 1(6), 6-11.
7. Qizi, J. R. G. Z. D., O'G'Li, S. S. K., & Faxriddinovich, M. S. (2023). GO 'ZAL KATALPANING MARFOLOGIYASI VA MANZARAVIYLIK XUSUSIYATLARI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 1(6), 46-49.
8. Pirmqulova, M. X., Mamarajabov, S. F., Abduvahobova, M. A. Q., Xolmatova, M. Y. Q., & Jumayev, I. B. O. G. L. (2023). 9.O'ZBEKISTONNING O'RTA MAVSUMDAGI

GULKARAM NAVLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(2), 661-665.

9. Хайитовна, Р. М., Faxriddinovich, М. S., & Bobomurod o'g'li, J. I. O'ZBEKISTONNING O'RTA MAVSUMDAGI GULKARAM NAVLARI.
10. Примкулова, М. Х., Мамаражабов, С. Ф., Абдувахобова, М. А., & Холматова, М. Ю. (2023). МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ И БИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАСТЕНИЯ ПАМИДОР, СОПТА. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(19), 69-74.